

OLIV TA'LIM MUASSASALARIGI

KIRUVCHILAR UCHUN

"XORAZM ILM ZIYO" NTM

| | |
|---|--|
| +998995607273 raqamiga SMS yuboring. | 3452ZTYS*Familiya Ism (Viloyat) *JAVOBLAR |
| Namuna: 3452ZTYS*Boltayev Anvar (Qashqadaryo)*BAADACCCAACA... | |
| Izoh: | |
| 1) Agar sizni ism familiyagizda yoki viloyatingiz nomida O',G' harflari qatnashsa ularni o'rniga U va G harflarini ishlating. | |
| 2) Harflarni faqat lotin alifbosida yozing. | |
| 3) Repetitsion testlar faqat ko'rsatilgan sanalar uchun yaroqli. 11.07.2019-13.07.2019 | |
| 4) Repetitsion testning sms javoblari soat 21:00 gacha qabul qilinadi. | |
| Natijalar: Har kuni @repetitsiontestuz kanalida soat 22:00 e'lon qilinadi | |

SAVOLLAR KITOBIV

999985

BLOKLAR:

Matematika (3.1)

Fizika (2.1)

Ona tili va adabiyoti (1.1)

Test topshiruvchi:

F.I.O.

IMZO

DIQQAT!

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan bo'yicha savollar soni to'liqligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'idagi "savollar kitobi raqami" bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

Savollar kitobida va javoblar varag'ida test topshiruvchining familiyasi, ismi, otasining ismi to'ldirilganligiga va imzosi qo'yilganligiga e'tibor qarating!

MATEMATIKA


1. 36455472363 sonini 2, 4, 5, 9, 10, 25 ga bo'lganda olinadigan qoldiqlar yig'indisini toping.
A) 26 B) 16 C) 14 D) 15
2. $a=15/32$, $b=21/24$ va $c=33/38$ sonlarni o'sish tartibida joylashtiring.
A) $c < b < a$ B) $c < a < b$
C) $b < a < c$ D) $a < c < b$
3. 7 ta sonning o'rta arifmetigi 13 ga teng. Ularning o'rta arifmetigi 18 ga teng bo'lishi uchun bu sonlarga qanday sonni qo'shish kerak?
A) 45 B) 56 C) 50 D) 53
4. Ayniyatdan β koefitsiyentni toping:
 $(-3x + \alpha y)(\beta x - 2y) = \gamma x^2 + 4xy + 2y^2$.
A) 1 B) 2 C) -1 D) -2
5. $\frac{2}{\sqrt{10} + \sqrt{15} + \sqrt{14} + \sqrt{21}}$ kasrning maxrajini irratsionallikdan qutqaring.
A) $\sqrt{10} + \sqrt{15} - \sqrt{21} + \sqrt{14}$ B) $\sqrt{10} - \sqrt{15} + \sqrt{21} - \sqrt{14}$
C) $\sqrt{10} - \sqrt{15} + \sqrt{21} + \sqrt{14}$ D) $\sqrt{10} - \sqrt{15} - \sqrt{21} + \sqrt{14}$
6. $2(x-2)^2 + 2(1-1,5x) = 1$ tenglama ildizlari yig'indisining $2/11$ qismini toping.
A) 2 B) 1 C) $1/11$ D) 11
7. Tomonlari 10, 8 va 6 ga teng bo'lgan uchburchakning eng katta tomoniga tushirilgan balandligini toping.
A) 3,8 B) 5,2 C) 4,2 D) 4,8
8. Agar muntazam uchburchakka ichki chizilgan aylana radiusi r ga teng bo'lsa, unga tashqi chizilgan aylana uzunligini toping.
A) $3\pi r$ B) $5\pi r$ C) $2\pi r$ D) $4\pi r$
9. ABC uchburchakda $\angle A = 30^\circ$, $AB = \sqrt{3}$ va $AC = 4$. A burchak uchidan tushirilgan balandlikni toping.
A) $\frac{\sqrt{21}}{7}$ B) $\frac{3}{7}\sqrt{21}$ C) $\frac{4}{7}\sqrt{21}$ D) $\frac{2}{7}\sqrt{21}$
10. Muntazam oltiburchakning tomoni $4\sqrt{2}$ ga teng. Aylanalarning orasidagi halqaning yuzini toping, bunda ulardan biri oltiburchakka tashqi chizilgan, boshqasi esa unga ichki chizilgan.
A) 8π B) 11π C) 12π D) 13π
11. $\begin{cases} x+y=2 \\ x-z=-1 \\ y-z=-5 \end{cases}$ tenglamalar sistemasini qanoatlantiruvchi x, y va z sonlarning o'rta arifmetik qiymatini toping.
A) 2 B) 1,5 C) 0 D) -2
12. x soni $9\sqrt{16} - 12\sqrt{36} + 4\sqrt{81} = 0$ tenglamaning ildizi bo'lsa, $3x$ soni nechaga teng bo'ladi?
A) 6 B) 2 C) 3 D) 4
13. Umumiy hadi $b_n = \frac{6n-2}{1+3n}$ $n \in \mathbb{N}$ bo'lgan ketma-ketlikning nechta hadi (1,7; 2,2) oraliqqa kirmaydi?
A) 8 B) 4 C) 5 D) 6
14. $x - 4 < \sqrt{x^2 - 6x}$ tengsizlikni yeching.
A) $(-\infty; 0) \cup (6; \infty)$ B) $(-\infty; 0] \cup (8; \infty)$
C) $(8; \infty)$ D) $(-\infty; \infty)$
15. x ning uchta son 0,(328); x ; 0,(671) arifmetik progressiya hosil qiladigan qiymatini toping.
A) 0,(523) B) 0,(532) C) 0,(45) D) 0,50
16. Tenglamani yeching $\frac{2^{2x-1} \cdot 4^{x+1}}{8^{x-1}} = 64$.
A) 4 B) -2 C) 2 D) 3
17. $\log_2^2 x + 3 = 2 \log_2 x^2$ tenglama ildizlari o'rta geometrigini toping.
A) 16 B) 8 C) $4\sqrt{2}$ D) 4
18. $x^2 + y^2 - 6x - 2y - 16 = 0$ aylana Ox o'qini ikkita nuqtada kesadi. Ushbu nuqtalar orasidagi masofani toping.
A) 9 B) 10 C) 12 D) 8
19. $ABCD$ kvadrat tekisligiga A uchidan AK perpendikulyar o'tkazilgan. Agar $AB=3$, $BK=4$ bo'lsa, K nuqtadan kvadratning C uchigacha bo'lgan masofa qanday bo'ladi?
A) 6 B) $5\sqrt{2}$ C) 4 D) 5
20. To'g'ri parallelepiped asosining tomonlari 3 va 4, ular orasidagi burchak esa 120° . Agar uning yon qirrasini $\sqrt{12}$ ga teng bo'lsa, parallelepipedning kichik diagonalini toping.
A) 7 B) 8 C) 5 D) 6
21. Muntazam to'rtburchakli kesik piramidada asoslar tomonlari 8 va 2, balandlik esa 4 ga teng. Piramidaning to'la sirti nimaga teng?
A) 168 B) 170 C) 169 D) 168,1
22. Silindr yon sirtining yuzi 50π ga teng. Agar asoslari yuzlarining yig'indisi ham shunday bo'lsa, uning hajmi qanday bo'ladi?
A) 128π B) 144π C) 196π D) 125π
23. Ikkita qo'shni tomonlarining markazlari orasidagi masofa $\sqrt{18}$ ga teng bo'lgan kubga tashqi chizilgan shar sirtining yuzini toping.
A) 108π B) 144π C) 125π D) 120π
24. x ning qanday qiymatlarida $y = \frac{1}{3}x^3 + \frac{1}{2}x^2 - 6x$ funksiya grafigiga urinma $y = 6x - 1$ to'g'ri chiziqqa parallel?
A) -2 va 1 B) -4 va 3
C) -5 va 4 D) -3 va 2
25. $ax^2 + bx + c$ ($a > 0$) funksiya $x=1$ da 2 ga teng bo'lgan eng kichik qiymatni qabul qiladi. Agar $y(2)=4$ bo'lsa, a, b va c ni toping.
A) $a=3; b=6; c=2$ B) $a=2; b=-4; c=4$
C) $a=6; b=-2; c=4$ D) $a=4; b=2; c=6$
26. $A(7; -5)$ nuqtadan o'tuvchi va absissa o'qiga perpendikulyar bo'lgan to'g'ri chiziq tenglamasini toping.
A) $x=-5$ B) $x=-7$ C) $x=5$ D) $x=7$
27. Agar $\operatorname{tg}\left(\frac{\pi}{4} + \alpha\right) = -\frac{59}{11}$ bo'lsa, $\operatorname{ctg} \alpha$ ni toping
A) $-\frac{35}{24}$ B) $\frac{24}{35}$ C) $-\frac{24}{35}$ D) $\frac{35}{24}$
28. Ushbu $1 - 2 \cos 2x > \sin^2 2x$ tengsizlikni yeching.
A) $\left(\frac{\pi}{4} + \pi k; \frac{3\pi}{4} + \pi k\right), k \in \mathbb{Z}$
B) $\left(\frac{\pi}{2} + \pi k; \pi + \pi k\right), k \in \mathbb{Z}$
C) $\left(-\frac{\pi}{2} + \pi k; \frac{\pi}{2} + \pi k\right), k \in \mathbb{Z}$

$$D) \left(\frac{\pi}{3} + 2\pi k; \frac{2\pi}{3} + 2\pi k \right), k \in Z$$

29. Ishchi birinchi kuni o'ziga topshirilgan ishning yarmini, ikkinchi kuni qolgan ishning yarmini, uchinchi kuni qolgan ishning yarmini bajardi. Ishni tugatishi uchun u to'rtinchi kuni ishning qanday qismini bajarishi kerak?
A) 1/8 B) 1/4 C) 1/16 D) 1/2
30. $y^2 - ty + \frac{1}{2}t + 2 = 0$ tenglama ustma-ust tushadigan ildizlarga ega bo'ladigan t ning barcha qiymatlari yig'indisini toping.
A) 1,5 B) -1 C) 1 D) 2

FIZIKA


31. Agar Yer va Quyosh orasidagi masofa hozirgi vaqtdagi masofaning teng yarmigacha kamaysa, Yer Quyosh atrofidagi aylanish davri necha sutka bo'lib qoladi?
A) 64,5. B) 129. C) 182,5. D) 730.
32. Jismning boshlang'ich tezligi 20 m/s ga teng. Jismga faqat muhitning qarshilik kuchi ta'sir qiladi deb hisoblab, uning tezligi to'rt marta kamaygandan toki to'xtagunga qadar qancha masofani o'tishini aniqlang (m). Qarshilik kuchi tezlikka proporsional. Qarshilik koeffitsiyenti 2 kg/s ga teng. Jism massasi 2 kg.
A) 15. B) 20. C) 5. D) 6.
33. Qo'zg'almas blokka bir xil m massali 5 ta yuk rasmdagidek osilgan. Yuklar og'irlik kuchi ta'sirida harakatlanganda 3 va 4 yuklar orasidagi ip taranglik kuchini toping. g -erkin tushish tezlanishi.



- A) $6mg/5$. B) $4mg/5$. C) $8mg/5$. D) $12mg/5$.

34. Zaryadlangan yassi havo kondensatori qoplamalarining zaryad sirt zichligi 4 marta orttirilib, qoplamalar orasidagi dielektrik singdiruvchanligi 4 ga teng bo'lgan modda bilan to'ldirilsa, elektr maydon energiya zichligi qanday o'zgaradi?
A) 5 marta ortadi. B) 4 marta kamayadi.
C) 4 marta ortadi. D) 6 marta ortadi.
35. Protonning dastlabki tezligi \mathcal{G} ($\mathcal{G} \ll c$). Proton uzoq masofadan dastlab tinch turgan α -zarraga yaqinlashmoqda. Protonning tezligi $0,2\mathcal{G}$ bo'lgan paytda α -zarraning tezligi qanday bo'ladi? $m_\alpha = 4m_p$.
A) $0,05\mathcal{G}$ B) $0,2\mathcal{G}$ C) $0,3\mathcal{G}$ D) $0,1\mathcal{G}$

36. Jism bosib o'tgan yo'lining vaqtga bog'lanish grafigi paraboladan iborat. Jismning 3 s dagi ko'chishini toping (m).




- A) 28. B) 27. C) 25. D) 30.

37. Vertikal yuqoriga 1 s vaqt intervali bilan birday 30 m/s boshlang'ich tezlik bilan otilgan jismlarning uchrashgan paytdagi oniy tezliklari nisbatini toping.
A) 1. B) 1,8. C) 1,1. D) 2.

38. Rasmda jism tezligining vaqtga bog'lanish grafiklari

keltirilgan. Qaysi grafikda jism harakati oxirida boshlang'ich vaziyatga eng yaqin masofada bo'ladi?




- A) III. B) II. C) IV. D) I.

39. Fotoeffekt hodisasida moddaga tushayotgan yorug'lik nurining intensivligi 2 marta ortsa, moddadan vaqt birligida chiqayotgan fotoelektronlar soni qanday o'zgaradi?
A) 4 marta ortadi. B) 2 marta kamayadi.
C) 4 marta kamayadi. D) 2 marta ortadi.

40. Bio-Savar-Laplas qonuni nimani hisoblashga yordam beradi?
A) elektr maydoni.
B) tokli o'tkazgichdan ajralib chiqqan issiqlikni.
C) yadro kuchlarini.
D) tokli o'tkazgichning magnit maydonini.


41. Bir atomli ideal gaz dastlab adiabatik so'ngra izobarik siqildi. Gazning boshlang'ich temperaturasi bilan oxirgi temperaturasi teng (rasmga qarang). Gazning to'liq siqilishda 2500 J ish bajarilsa, izobarik siqishda gaz molekullari qancha ish bajaradi (J)?



- A) 300. B) -1000. C) 1000. D) 200.


42. Vodorod molekullarining ilgarilanma harakat o'rtacha kvadratik tezligi 120 m/s. Gazning temperaturasi qanday (K)?
A) 2,85. B) 0,82. C) 1,15. D) 2,6.

43. Bir atomli ideal gaz dastlab adiabatik so'ngra izobarik kengaydi. Gazning boshlang'ich temperaturasi bilan oxirgi temperaturasi teng. Gaz to'liq kengayishda A ish bajarilsa, adiabatik kengayishda qancha ish bajariladi?



- A) A. B) $0,4A$. C) $0,8A$. D) $0,6A$.

44. Bir atomli gaz oldin izobarik qizdirildi, keyin izoxorik sovutildi. Bunda gaz harorati o'zgarmadi. Agar gaz izobarik jarayonda 10 J issiqlik olgan bo'lsa, izoxorik jarayonda ichki energiya o'zgarishini toping (J)



- A) -6. B) 14. C) 12,6. D) 6.

45. Qanday haroratda suyuqlik va to'yingan bug' orasidagi fizik farq yo'qoladi?
A) erish haroratida. B) shudring nuqtasida.
C) qaynash nuqtasida. D) kritik haroratda.

46. Parallel nurlar dastasi yig'uvchi linzaning optik o'qiga 30° burchak ostida tushmoqda. Agar bu nurlar dastasining birinchi cheti fokusdan, ikkinchi cheti esa optik markazdan o'tsa va bu nurlar optik o'qdan 6 cm masofada


yig'lsa, nurlar dastasining diametrini aniqlang (cm).

- A) $3\sqrt{3}$. B) 3. C) 1. D) 4.

47. Chastotalari teng, o'zaro tik va chiziqli qutblangan ikki kogerent nur ekranda qo'shilmogda. Birinchi nur intensivligi I, ikkinchisidiki 2I. Ekrandagi maksimal intensivlik qanday bo'ladi?

- A) 5,8I. B) 3I. C) 2,1I. D) 3,17I.

48. 12 dona bir xil o'tkazgich olinib, ulardan elektr zanjir tuzilgan. Zanjirning A nuqtasiga +3 V, B nuqtasiga +15 V potentsiallar ulangan. Φ_1/Φ_6 potentsiallar nisbati topilsin.



- A) 1/2. B) 5/8. C) 5/11. D) 5/9.

49. O'tkazgich solishtirma qarshiligi ρ , hajm birligida ajralib chiquvchi issiqlik quvvati ω . Agar o'tkazgichda erkin elektronlar konsentratsiyasi n bo'lsa, ularning o'rtacha dreyf tezligini aniqlang.

A) $\vartheta = \frac{1}{nc} \sqrt{\frac{2\omega}{\rho}}$ B) $\vartheta = \frac{2}{ne} \sqrt{\frac{\omega}{\rho}}$

C) $\vartheta = \frac{1}{ne} \sqrt{\frac{\omega}{\rho}}$ D) $\vartheta = \frac{1}{n} \sqrt{\frac{\omega}{\rho}}$

50. ABC uchburchakning uchlariga massalari 4 g, 6 g, 10 g bo'lgan yuklar osilgan. Uchburchak tomonlari AB=50 cm, BC=40 cm, CA=30 cm bo'lsa, sistemaning massa markazi BC tomonidan qanday masofada joylashgan (cm)?

- A) 5. B) 6. C) 4 D) 10.

51. p impuls bilan harakatlanayotgan sharcha huddi shunday tinch turgan sharchaga elastik urilib, harakatini $p/2$ impuls bilan davom ettirdi. Ikkinchi sharchaning impulsini toping.

A) $p/3$ B) $\sqrt{3}p/2$

C) $p/2$ D) $\sqrt{2}p/2$

52. Bochkadagi suvning balandligi h . Bochkaning eng pastki nuqtasidan S yuzali kichik teshik ochildi. Kichik t vaqt ichida undan qanday hajmdagi suv oqib chiqadi?

A) $St\sqrt{gh}$ B) $St\sqrt{2gh}$

C) $St\sqrt{2h/g}$ D) $St\sqrt{2g/h}$

53. Elektromagnit tebranish konturidagi kondensator zaryadlanib induktiv g'altakga ulandi. Quyidagi vaqt intervalining (0-4,7T) qanchasida tokning kamayishiga induksion tok qarshilik qiladi?

- A) 2,2T. B) 0,25T. C) 1,25T. D) 2T.

54. Tebranish davri T_1 bo'lgan prujinali mayatnikning m massali yuki diamagnit moddadan yasalgan. Mayatnik ostiga doimiy magnit qo'yilganda yuk magnitga qo'shimcha mg kuch bilan tortila boshladi. Ikkinchi holda tebranish davri T_2 bo'lsa, T_1/T_2 nisbatni aniqlang.

- A) 1. B) 2. C) 0. D) 4.

55. OX o'qi bo'ylab to'lqin uzunligi 8π m bo'lgan ko'ndalang mexanik to'lqin tarqalmoqda. Koordinatasi $x = 106$ m bo'lgan nuqtaning tebranish amplitudasi 110 mm va maksimal tezlanishi 1331 m/s^2 deb hisoblab, to'lqin tarqalish tezligini aniqlang (m/s).

- A) 35,05. B) 440. C) 70,1. D) 555.

56. Dioda p-n o'tish qatlamining asosiy xususiyati?

A) o'zgarimas tokni o'zgaruvchanga aylantirish.

B) tokni o'lchash.

C) tokni kuchaytirish.

D) tokni bir tomonlama o'tkazish.

57. Vodород atomidagi elektron 10-kvant sathdan 13-kvant sathga o'tishida energiya yutiladimi yoki nurlanadimi?

A) yutilishi yoki nurlanishi mumkin.

B) yutiladi.

C) nurlanadi.

D) nurlanmaydi ham, yutilmaydi ham.

58. 0,3c tezlikda harakatlanayotgan zarracha parchalanib ikkita γ -kvantga aylandi. Birinchi γ -kvant zarrachaning harakat yo'nalishida nurlandi deb hisoblab, kvantlarning v_1 va v_2 chastotalarini taqqoslang. c-yorug'likning vakuumdagi tezligi.

A) $v_1 < v_2$. B) $v_1 \leq v_2$.


C) $v_1 = v_2$. D) $v_1 > v_2$.

59. Yorug'lik tezligiga yaqin tezlikda harakatlanayotgan jismga taalluqli yoki unga bog'liq bo'lgan quyidagi kattaliklardan qaysi biri o'zgarmaydi?

1) uzunlik; 2) vaqt; 3) massa 4) harakat yo'nalishiga perpendikular bo'lgan yuz; 5) zaryad.

- A) 4 va 5. B) 1 va C) 1 va 2. D) 2 va 3.

60. Rasmda qandaydir modda atomlar sonining vaqtga bog'liqlik grafigi keltirilgan. Shu grafikdan foydalanib, 8 sutkadan so'ng qancha atom qolishini aniqlang.



- A) 10^{22} . B) 10^{20} . C) 10^{19} . D) $2 \cdot 10^{20}$.

ONA TILI VA ADABIYOTI

61. To'g'ri yozilgan so'zlar sonini toping.

xanuz, xiylakor, hushyor, hijjalomoq, nomoyon

- A) 4 B) 2 C) 1 D) 3

62. Predmetlarning joylashish o'rniga ko'ra so'z ma'nosi ko'chgan qatorni toping

A) buloq ko'zi, uzuk ko'zi

B) tandir og'zi, g'or og'zi

C) devor qulog'i, qozon qulog'i

D) varrak dumi, samolyot dumi

63. Insoniyat baxti yo'lida ter to'kmay turib, haqiqiy go'zallikka erishib bo'lmaydi.

Ushbu gapda nechta portlovchi undosh ishtirok etgan?

- A) 21 ta B) 20 ta C) 19 ta D) 18 ta

64. Ovg'a kirishadigan qushlardan qarchig'ay miqqiy qirg'iy urishadigan qushlardan dakan xo'roz kaklik bedana (bu so'nggi ikkisi sayrash uchun ham boqilib cho'qqafasda to'rqafasda saqlanadi) sayraydiganlardan sa'va bulbul mayna va boshqalar bor edi.

Ushbu parchada qaysi tinish belgilari tushirib qoldirilgan?

1) vergul; 2) nuqtali vergul;

3) ikki nuqta; 4) tire.

A) 1, 2, 4 B) 2, 3, 4

C) 1, 3, 4 D) 1, 2, 3

65. Keng yaylovga o'tdi ketdi, yondimi?

"Madaniyat" istagiga qondimi? (Cho'lpon)

Ostiga chizilgan so'zdama'no ko'chishining qaysi turidan foydalanilgan?

A) metafora B) metonimiya

C) sinekdo'xa D) vazifadoshlik

66. Qaysi gapda sinekdoxa usuli bilan ma'no ko'chgan?
 A) Umrini ilmga bag'ishlagan odam abadiy umrga erishadi.
 B) Mehmonlar uchun meva-cheva, quyuq-suyuq tortildi.
 C) Dunyoda tashvishlarni ko'p chekdi boshim.
 D) El og'ziga elak tutib bo'lmaydi.
67. Olmoshning qaysi turida qo'shma olmoshlar bir turdagi olmoshlardan tashkil topgan?
 A) belgilash B) kishilik
 C) ko'rsatish D) so'roq
68. Aralash murakkab qo'shma gaplarni aniqlang.
 1) Agar traktor berilsa, yerlar traktor bilan haydalsa, menhat unumli bo'ladi va hosil mo'l bo'ladi.
 2) Bilim shundayki, u yalang'och bo'lganida ham o'zing bilan qoladi, uni suv bilan ham yo'qota olmaysan.
 3) Reja bajarilsa, dasturxon mo'l bo'lsa, yor-u do'st, birodarlar qalin bo'lsa, tantanalar qishgacha davom etaveradi.
 4) Shuni ta'kidlash lozimki, miyada jismoniy harakat yuzaga keladi, mushakchalar bilan boyitib boradi.
 5) O'ziga aytgisi keladi-yu, singlisi immanadi, xafa qilib qo'ysa-chi.
 A) 1, 2, 5 B) 1, 2, 3, 5
 C) 1, 2, 3, 4, 5 D) 1, 5
69. Tobe so'z qismlari yasama bo'lgan juft so'zlardan iborat birikmani toping.
 A) qo'llab-quvvatlashi bilan
 B) ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot
 C) ilmiy-tanqidiy matn
 D) el-yurt farovonligi
70. Dunyoning tinchligi va farovonligi, insoniyat butunligi, dono va oqil, pok niyatli odamlarga bog'liq.
 Ushbu gapdagi ism asosli yasama so'zlar sonini aniqlang.
 A) 6 B) 3 C) 2 D) 5
71. Noto'g'ri yozilgan so'zlar sonini toping.
 vakuum, valyuta, sazovor, iztirob, hijja
 A) 1 B) 3 C) 4 D) 2
72. **Men shu uzundan-uzoq umrimda-chi, bolam, hech qachon bunday ojiz, bunday ayanchli ahvolga tushmagandim.** Berilgan gapda kishilik olmoshi qaysi bo'lakka tobelangan?
 A) hol B) kesim
 C) aniqlovchi D) to'ldiruvchi
73. Qaysi gapda mustaqil va nomustaqil vositasiz to'ldiruvchi ishtirok etgan?
 A) Buni sizga qanday aytishni bilmadik.
 B) Bizga va sizga bu hayotni mustaqillik berdi.
 C) O'z tilini sevgan inson uning kelajagi uchun qayg'uradi.
 D) Yuragiga go'zallikdan bahra olish tuyg'usini quydi.
74. Berilgan ergash gapli qo'shma gapning har ikkala qismida ega ishtirok etgan javobni aniqlang.
 A) Bug'doy ekan bug'doy, arpa ekan arpa o'radi.
 B) Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi.
 C) Barcha javoblar to'g'ri.
 D) Maktab deb qurdik bino, hamma ilm olsin deb.
75. Bular yonida ot choptirib, changitib o'tish insonlik sha'niga isnodir, nahotki, shuni ham bilmasalaring?
 Mazkur gapda bir tovushdan iborat qo'shimchalar nechta?
 A) 3 ta B) 5 ta C) 4 ta D) 2ta
76. «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga ayrim o'zgartirishlar kiritish haqida»gi qaror qachon qabul qilingan?
 A) 1993-yil 2-sentyabr B) 1995-yil 24-avgust
 C) 1995-yil 6-may D) 1996-yil 1-sentyabr
77. Qaysi iboraning ma'nosi beparvo, beg'am so'zlariga sinonim bo'la oladi?
 A) chuchvarani xom sanamoq B) kayfi xush
 C) do'ppisi yarimta D) qush kabi yengil tortmoq
78. **o'rtoq va yoq (tomon)** so'zlariga qaysi qo'shimcha qo'shilsa asosda fonetik o'zgarish bo'ladi?
 A) **o'rtoq** so'ziga egalik va kelishik, **yoq** so'ziga egalik qo'shimchasi
 B) kelishik qo'shimchasi
 C) egalik qo'shimchasi
 D) kelishik va egalik qo'shimchalari
79. Bir tomondan, umumxalq tili va adabiy tilga tayanadigan, boshqa jihatdan, ularning har ikkalasidan farqlanib turadigan alohida san'at hodisasi - . . .
 A) milliy til B) badiiy til
 C) xalq tili D) yozma nutq
80. Barchasi bitishuv yo'li bilan hosil bo'lgan so'z birikmalari qatorini aniqlang.
 A) milliy g'oya, sof havo, baxtli voqea
 B) maktab ko'chalari, mehr bilan boqmoq, shahar kezmoq
 C) gul atri, tez yurmoq, kitob o'qimoq
 D) yurt kezgan, kuy bastalamoq, shahar ko'chalari
81. Qaysi qatorda tarixiy og'irlik o'lchov hisob so'zlari berilgan?
 A) qarich, yog'och, dahsar, dona
 B) dahsar, paysa, qadoq, gaz, qalam
 C) misqol, botmon, dahsar, paysa, qadoq
 D) dona, bosh, nafar, tanob
82. "Me'mor"(Mirmuhsin) romanida Najmiddin Buxoriy qaysi temuriy hukmdor zamonida Hirot shahriga kelib, Boshkentning obodligi yo'lida ulkan ishlar qiladi?
 A) Shohrux Mirzo. B) H.Boyqaro.
 C) Abulqosim Bobur. D) Mironshoh Mirzo.
83. «Shajarayi turk» asarida Chingizxon tomonidan Qarluq eliga yuborilgan elchining ismi kim edi?
 A) O'g'uzxon B) Arslon Qo'bulay nuyon
 C) Barlos Qo'bulay nuyon D) Qoraxon
84. "Bolaning ko'ngli podsho" hikoyasida bolaning uyidan otilib chiqqan o'rtog'ining ismi kim?
 A) Adham. B) Akram. C) A'zam. D) Aziz.
85. "Tong o'rniga Qayg'ular otar Kimni?" Ushbu satrlar kimning qalamiga mansub?
 A) O.Muxtor B) R.Parfi
 C) Faxriyor D) B.Ro'zimuhammad
86. Qaysi qatorda nasriy didaktik asarlar berilgan?
 1."Pantachantra" ("Kalila va Dimna"), 2."Mahbub ul qulub", 3."Ming bir kecha", 4."Zarbulmasal", 5. "Gulzor", 6."Qobusnoma", 7."Miftoh ul-adl", 8."Qutadg'u bilig"
 A) 2,4,5,6,7 B) 1,3,4,5,6
 C) 1,3,5,6,7 D) 1,4,6,7,8
87. Zulfiya "Bog'lar qiyg'os gullaganda" she'rida "orqa tog'" deb kimni yoki nimani aytadi?
 A) yozgan she'rlarini B) o'tgan umrni
 C) bog'dagi daraxtlarni D) o'zbek xalqini
88. "Ufq"(S.Ahmad) romanida Tog'a kimni kampirni (Ikromjonning xotinini) suyuntirishga jo'natadi?
 A) Karimni B) Rayimni
 C) Ummatalini D) Nizomjonni
89. "Avesto"da "Hikmatli" deb ta'riflangan Mitraning yordamchisi kim?
 A) Sraosha B) Asha
 C) Narya Sanha D) Arta
90. "Shum bola" asarida boyning uloqchi otining zotini toping?
 A) Saman tulpor B) To'riq qashqa
 C) Qora qashqa D) Arabi tulpor

